



# CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI




***2022- yil yanvar holatiga ko'ra  
dastlabki ma'lumot***


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI



### Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

### O'sish sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Uyushmagan savdo

### Tarkibiy qism, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari



Yirik korxonalar

Uyushmagan savdo

### Dastlabki ma'lumotlar

Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi **18 426,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **15,8** % ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **4 330,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **172,1** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **12 369,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **104,7**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 726,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **109,6** %) tashkil etdi.

### Uyushmagan savdo, mlrd. so'm



Jami Uyushmagan savdo

1 726,3

100 %


## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm



Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi **18 426,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **115,8 %** ni tashkil etdi.

Respublikamiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida **76,5 %** kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va **23,5 %** yirik korxonalar hissasiga to'g'ri keldi.

*Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 25,0 % ulush bilan 4 600,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.*



*Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Sirdaryo viloyati 1,6 % ulush bilan 296,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.*






## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2021- yilning yanvar oyiga nisbatan respublikaning Xorazm (**131,4 %**), Jizzax (**128,8 %**), Navoiy (**122,8 %**) viloyatlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, eng yuqori ko'rsatkich Xorazm viloyatida qayd etildi.

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	<b>18 426,5</b>	<b>115,8</b>	<b>4 330,5</b>	<b>172,1</b>	<b>14 095,9</b>	<b>105,3</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	603,2	114,3	55,6	217,7	547,6	109,0
<i>viloyatlar :</i>						
Andijon	1 311,0	111,7	190,7	186,5	1 120,3	104,5
Buxoro	1 070,9	119,9	213,8	255,2	857,0	105,9
Jizzax	768,3	128,8	172,3	542,7	596,0	105,5
Qashqadaryo	1 170,7	113,3	109,8	242,5	1 060,9	107,4
Navoiy	693,2	122,8	160,9	431,5	532,3	100,9
Namangan	1 035,1	110,8	99,8	138,9	935,3	108,4
Samarqand	1 487,2	110,9	381,6	129,3	1 105,6	105,7
Surxondaryo	1 217,9	109,9	92,6	199,7	1 125,3	105,9
Sirdaryo	296,9	109,6	20,8	158,2	276,1	107,1
Toshkent	1 993,6	121,6	614,4	333,9	1 379,2	94,8
Farg'ona	1 386,3	111,0	164,5	182,5	1 221,8	105,4
Xorazm	791,5	131,4	204,5	369,9	586,9	107,3
Toshkent sh.	4 600,7	115,8	1 849,1	129,1	2 751,6	108,4



## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **72,1 %** ga o'sdi va **4 330,5** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **23,5 %** ulushiga to'g'ri keladi.


Eng past ulushga ega hududlar, % da



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **12 369,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **4,7 %** ga ko'paydi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **67,1 %** ni tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foizda**

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sirdaryo (**93,0** %), Surxondaryo (**92,4** %), Qoraqalpog'iston Respublikasi (**90,8** %), Qashqadaryo (**90,6** %) viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **23,5** % ni tashkil etib, eng katta ulush Toshkent shahrida (**40,2** %), Toshkent (**30,8** %), Xorazm (**25,8** %) va Samarqand (**25,7** %) viloyatlarida kuzatildi.



**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik**

**Yirik korxonalar**


## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022- yilning yanvar oyi holatiga ko'ra, o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **527,8** ming so'mni (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **13,6** % ga oshdi) tashkil etdi.

### Hududlar kesimida ma'lumot (ming so'mda)

	Hajm, ming so'm	2021- yilning yanvar oyiga nisbatan, % da
O'zbekiston Respublikasi	<b>527,8</b>	<b>113,6</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar:	311,6	112,8
Andijon	407,0	109,5
Buxoro	545,8	118,2
Jizzax	538,4	126,0
Qashqadaryo	347,2	111,1
Navoiy	677,1	120,6
Namangan	357,0	108,5
Samarqand	372,8	108,7
Surxondaryo	449,1	107,6
Sirdaryo	341,4	107,5
Toshkent	683,5	123,0
Farg'ona	359,3	108,9
Xorazm	414,7	129,4
Toshkent sh.	1 631,8	108,5

### Eng yuqori hajmga ega hududlar





### Eng past hajmga ega hududlar



\* Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Toshkent shahri (**1 631,8** ming so'm), Toshkent (**683,5** ming so'm) va Navoiy (**677,1** ming so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.


## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 726,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **9,6 %** ga oshdi. Shu jumladan, 1 bozor va 1 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **754,2** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **16,1 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **972,0** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **5,1%**) tashkil etdi.

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda





## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	<b>1 726,3</b>	<b>109,6</b>	<b>754,2</b>	<b>116,1</b>	<b>972,0</b>	<b>105,1</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	67,1	109,3	37,9	109,5	29,2	108,9
viloyatlar:					0,0	
Andijon	159,6	113,3	57,3	118,8	102,3	110,5
Buxoro	106,5	111,2	50,9	115,8	55,7	107,4
Jizzax	146,5	108,4	66,0	183,0	80,6	81,3
Qashqadaryo	168,6	113,3	79,6	102,9	88,9	124,5
Navoiy	32,5	112,2	17,0	109,8	15,5	115,0
Namangan	124,5	106,6	42,0	106,5	82,6	106,7
Samarqand	166,0	107,6	44,5	109,0	121,5	107,1
Surxondaryo	283,1	102,8	112,8	120,9	170,3	93,6
Sirdaryo	26,4	103,3	11,6	155,6	14,8	81,8
Toshkent	143,8	107,2	51,3	91,9	92,5	118,1
Farg'ona	99,4	105,7	50,8	102,6	48,6	109,1
Xorazm	122,0	122,4	57,1	121,0	65,0	123,7
Toshkent sh.	80,3	124,9	75,6	125,0	4,8	124,4

2022- yilning yanvar oyida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **754,2** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **972,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda


\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2022- yilning yanvar oyida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **754,2 mlrd. so'mni** tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**339,6 mlrd. so'm**) to'g'ri keldi.



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd. so'm



2022- yilning yanvar oyida respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **972,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **740,0** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **193,6** mlrd. so'mni, otlar **32,5** mlrd. so'mni, parrandalar **5,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




2022- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **3,4** % ni tashkil etib, **620,5** mlrd. so'mga yetdi va 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **15,2** % ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **77,5** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	<b>620,5</b>	<b>115,2</b>	<b>139,2</b>	<b>157,0</b>	<b>481,3</b>	<b>106,9</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	14,4	99,8	0,7	66,3	13,7	102,3
viloyatlar:						
Andijon	19,3	103,7	0,0	0,0	19,3	105,2
Buxoro	35,4	105,3	3,5	98,9	31,8	106,1
Jizzax	13,2	103,4	0,0	-	13,2	103,4
Qashqadaryo	29,2	103,4	1,1	110,0	28,1	103,1
Navoiy	17,7	112,5	3,2	210,7	14,5	102,1
Namangan	18,6	102,5	0,1	2,1	18,5	118,4
Samarqand	38,5	119,7	15,7	414,1	22,8	80,4
Surxondaryo	22,8	99,1	0,5	27,8	22,3	105,9
Sirdaryo	8,2	105,7	0,0	-	8,2	105,7
Toshkent	54,6	105,8	10,7	92,0	43,9	109,8
Farg'ona	29,6	108,9	1,2	89,1	28,3	109,9
Xorazm	11,0	104,6	0,0	0,0	11,0	118,0
Toshkent sh.	308,1	129,3	102,5	180,1	205,6	113,4



## MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2021- yilning yanvar oyi bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi **0,3 %** dan **0,5 %** ga ko'paygan.


Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi **620,5** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **121,4 %**) va mulkchilik shakllari bo'yicha **617,7** mlrd. so'm nodavlat mulkka (**99,5 %**) hamda **2,8** mlrd. so'm (**0,5%**) davlat mulkiga to'g'ri keldi.

	Jami, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulk, mlrd. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>620,5</b>	<b>100,0</b>	<b>617,7</b>	<b>99,55</b>	<b>2,8</b>	<b>0,45</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	14,4	2,3	14,4	99,69	0,0	0,31
viloyatlar:					0,0	
Andijon	19,3	3,1	19,3	100,0	-	-
Buxoro	35,4	5,7	35,3	99,93	0,0	0,07
Jizzax	13,2	2,1	13,2	99,51	0,1	0,49
Qashqadaryo	29,2	4,7	29,2	100,0	-	-
Navoiy	17,7	2,9	17,3	97,96	0,4	2,04
Namangan	18,6	3,0	18,5	99,54	0,1	0,46
Samarqand	38,5	6,2	38,5	99,86	0,1	0,14
Surxondaryo	22,8	3,7	22,8	100,0	-	-
Sirdaryo	8,2	1,3	8,2	100,00	-	-
Toshkent	54,6	8,8	54,5	99,77	0,1	0,23
Farg'ona	29,6	4,8	29,6	100,00	-	-
Xorazm	11,0	1,8	11,0	100,0	-	-
Toshkent sh.	308,1	49,6	306,0	99,34	2,0	0,66




## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Ulgurji savdo tovar aylanmasi, foizda




Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **8 987,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **11,3** % ga o'sdi. Kichik biznes sub'ektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 6 195,8 mlrd.so'mni tashkil qilgan, bu esa 2021 yil mos davriga nisbatan 9,7 % ga oshgan. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdodagi ulushi 68,9 % ni tashkil qilgan.

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
O'zbekiston Respublikasi	<b>8 987,9</b>	<b>111,3</b>	<b>2 792,0</b>	<b>115,1</b>	<b>6 195,8</b>	<b>109,7</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	102,5	95,9	17,5	66,1	85,0	105,7
viloyatlar:						
Andijon	243,7	83,8	23,1	26,9	220,6	107,6
Buxoro	281,8	101,3	83,8	74,4	198,1	119,6
Jizzax	165,8	109,2	29,8	135,9	136,0	104,7
Qashqadaryo	186,7	100,4	28,0	69,0	158,7	109,2
Navoiy	102,9	106,1	20,0	144,2	82,9	99,8
Namangan	286,0	110,6	35,3	76,7	250,7	117,9
Samarqand	460,5	98,7	77,7	58,7	382,8	114,6
Surxondaryo	199,2	111,6	45,6	132,1	153,6	106,7
Sirdaryo	137,1	99,0	6,2	115,8	130,9	98,3
Toshkent	635,6	100,9	212,8	93,7	422,8	104,9
Farg'ona	508,1	105,2	18,0	75,8	490,1	106,7
Xorazm	167,0	107,7	23,0	96,6	143,9	109,8
Toshkent sh.	5 511,1	118,5	2 171,3	133,2	3 339,7	110,6


Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Navoiy (**144,2 %**), Jizzax (**135,9 %**) viloyatlari va Toshkent shahrida (**133,2 %**) kuzatildi.




## MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



So'nggi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o'rni pasayib bormoqda. Hisobot davrida ushbu sektorning jami ulgurji tovar aylanmasidagi ulushi **0,1 %** ni tashkil qildi. 2022- yilning yanvar oyi yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi **8 987,9** mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan, nodavlat tasarrufga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi **8 981,5** mlrd. so'mni va davlat tasarrufiga ega korxonalar tomonidan **6,4** mlrd.so'mni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi bo'yicha mulkchilik shakllarining ulushi tahlil qilinganda, davlat mulkini hali ham Toshkent shahrida (**0,11 %**), Navoiy (**0,15 %**) va Andijon (**0,04 %**) viloyatlarida saqlanib qolganligini ko'rish mumkin. Boshqa barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkka tegishli.



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasi**  
**Тел.: 71-202-80-42 (43)**